

## INFORMATIKA FANINI O`QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

### USE OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING INFORMATICS

**Eminov Behzodbek Abdujabborovich.**

Fergana for people with disabilities  
Specialized vocational school

Head of the Department of Informatics and Information Technology

**Xoshimov Ulug`bek Shaxobidinovich**

Fergana for people with disabilities  
Specialized vocational school  
Special science teacher

**Axmedov Bobur-Mirza Ravshanbek o`g`li**

Fergana for people with disabilities  
Specialized vocational school

Head of the Department of General Education

**Annotation:** The article shows the methods of using modern pedagogical technologies in the teaching of computer science.

**Keywords:** Practical activity, pedagogical skills, mental activity, physical activity, computer technology

Ta`lim taraqqiyoti ishlab chiqarishning ko`p sonli tarmoqlariga, balki, ijtimoiy-gumanitar bilimlar doirasiga ham yangi texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda. Shu boisdan keyingi o`n yilliklarda texnolog olimlar diqqatini jalb qilgan dolzarb masalalardan biri pedagogik texnologiya hisoblanadi. Bunday darslarda o`quvchini mustaqil fikrlashga, izlanishga, mavzuga ijodiy yondashib tahlil etishga, xulosa chiqarishga, o`z – o`zini va guruhni baholashga imkon tug`diradi. Hozirgi kunda kompyuter texnologiyalarida yangi pedagogik texnologiyalarni o`quv jarayoniga qo`llashga bo`lgan qiziqish, e`tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo`lishining sabablaridan biri shu vaqtgacha an`anaviy ta`limda o`quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o`rgatilgan bo`lsa, yangi ta`lim texnologiyalari ularni egallayotgan bilimlarni o`zlari qidirib topishlari, mustaqil o`rganib tahlil qilishlariga xatto xulosalarni xam o`zlari keltirib chiqarishlariga o`rgatadi. Bugungi kundagi maktab o`quvchilariga berilayotgan bilimlar anchagina avvalgi bilimlar bo`lib, o`quvchilar bundan yetrlicha bilim olmayapti desak xato qilmaymiz. Bu esa o`quvchilarni darsga bo`lgan qiziqishlarini anchagina sust holatga keltirib qo`ygan. O`quvchilarning aqliy va jismoniy faoliyati uzviy ishlab turishi uchun ularda Jonli aqll, amaliy sahna`, Muammoli vaziyat ko`rinishidagi yangicha metodikadan foydalansak maqsadga muvofiq bo`ladi. Bunda o`qituvchining kompyuter texnologiyasi yoki audiolardan foydalanishi talab etiladi. Pedagog o`quvchilarga ta`lim berishda o`quv darsligiga tayanibgina qolmay o`z ustida ishlab o`tiladigan mavzuga oid masala va misol, qiziqarli topshiriqlarni video yoki audiolar orqali o`quvchilarga eshittirishni tashkillashtirish maqsadli. Informatikt darsi mavzusidagi vazifani, qiziqarli topshiriqlarni audiolar orqali o`quvchilarga eshittirishlar orqali yechimlarini toptirish yoki ovossiz harakatli videolarni ko`rsatib masalalarning shartini va yechimini aqliy yechtirish ham bolalarning tasavvurini va aqliy o`shishini rivojlantiradi. O`quvchilarda fikrlash doirasi anchagina kengayib boradi. Misol qilib aytadigan bo`lsak Amaliy bilim yangi metodikamizni shakllantiradigan bo`lsak bunda, o`qituvchi informatikadan tayyorlab kelgan video rolikni yoki topshiriqni sinfga audio eshittirish orqali qo`yib beriladi va sinfdagi har bir o`quvchi tinglaydi va har bir o`quvchidan tinglangan masalani sharti va yechimi so`raladi. Bunda o`quvchilarda eshitish qobiliyati, aqliy faolliqi, fikrlash doirasi, nutqi, tafakkurida katta o`zgarish yuz beradi desak mubolag`a bo`lmaydi. Bu

metodikamizda o`qituvchi darslikdagi o`tiladigan mavzuning hammasini eshittirish qilishi ham mumkin emas, chunki o`quvchilarda loqaydlikka olib kelinishi ham mumkin. O`tiladigan mavzudan ikkita eng qiziqarli va murakkabroq masalani eshittirish orqali qo`llasa maqsadli. O`quvchilarning esda saqlash qobiliyatini shakllantirishda esa informatikadan berilgan sahna ko`rinishi orqali o`tkazish, ham jismoniy ham aqliy faoliyatini shakllantiradi. Bu esa o`quvchilarning darsdagi aqliy faol qatnashishiga sabab bo`ladi. Bunda Amaliy xarakat ko`rinishidagi usulimiz qo`l keladi. Bu metodikamiz nafaqat informatika fanida balki o`qish, tabiatshunoslik, atrofimizdagi olam fanlarida ham qo`l keladi. Bu metodikamizni o`rta sinf informatika fanida qo`llaydigan bo`lsak, biron bir vazifani sharti o`qituvchi tomonidan o`qiladi va sinfdan vazifaning qahramonlari olinib sinf sahnasida vazifani sharti va yechimini jonli ko`rinishda qilib o`tirgan o`quvchilarga ko`rsatib beriladi. Bunda ham qatnashgan ham kuzatayotgan o`quvchilarda tasavvurida vazifa yechimlari paydo bo`ladi. Har kungi darsda o`qituvchi qatnashmagan o`quvchilarni navbatma – navbat qatnashtirib sinfdagi barcha o`quvchilarni ham aqliy ham jismoniy shakllantirib boraveradi. Bu metodlarni darsdagi vaqt taqsimotini qiladigan bo`lsak, o`qituvchi birinchi, ikkinchi marta qo`llashda 45 daqiqalik vaqtdan 10-15 daqiqasini bitta metodik vazifaga ajratishiga to`g`ri keladi. Keyingi darslarimizda o`qituvchi va o`quvchilar o`rtasida hamkorlik paydo bo`lib vaqt taqsimoti 5-10 daqiqaga to`g`ri keladi va darsdagi faollik ko`nikmalari shakllanib boradi.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi fikrlar o`rta sinfdagi o`qitilayotgan informatika darsligidagi mavzularga tayanibgina qolmay o`quvchilarni rivojlanish jarayoniga asoslanib ularga yangicha turdagi bilimlarni ham oson ham tez va samarali darslarni berib borishga qaratilgan. Bunda o`qituvchining izlanuvchanligi va pedagogik mahorati juda katta rol o`ynaydi. Har bir darsdan ko`zlangan maqsad o`rta sinf o`quvchilarga yangi bilim berishga qaratilgan bo`lsa, butun didaktik usullar shunga bo`ysundiriladi.

## Adabiyotlar

1. Mamatov J., Parmanov A. Planimetrik masalalarni zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida o`qitishning samaradorligi haqida //Журнал математики и информатики. – 2021. – Т. 1. – №. 2.
2. Begbutayev A. Kasbiy bilimlarni oshirishda pedagogik dasturiy vositalarni tadbiq etish //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.
3. Tangirov K. Informatika darslarida “Matn muharrirlari” mavzusini o`qitishda elektron ta`lim resurslaridan foydalanish //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.
4. Siddikov, I., & Gulomov, A. (2020). Philosophical and psychological features of the formation of assertive behavior in the development of cognitive activity. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 38-42).